



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Biznes Tashkilotlarining Moliyaviy Hisobotlari Maqsadi Va Biznes Qarorlarda Qo'llanilishi

Misirov A. M

SamISI "Buxgalteriya hisobi" kafedasi assistenti

Turabekov Bekali Shavkat o'g'li

TDIU SF BH-123 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Biznes tashkilotlarida moliyaviy hisobotlatning ahamiyati; moliyaviy hisobotlarning tuzish tartibi; moliyaviy hisobotlarga qo'yilgan talablar va MHXS bo'yicha o'zaro farqlari; biznes qarorlar qabul qilishda moliyaviy hisobotlarning o'rni yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, biznes tashkilotlar, BHMS, MHXS, xalqaro standart, milliy standartlar, moliyaviy natijalar, balans, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

Globalashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimi taraqqiy ettirilishida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, davlat ulushiga tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida va yirik soliq to'lovchilarning moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlashi muhim hisoblanadi. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi hisob siyosatida ham muhim o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu jihatdan, milliy standartlarning tuzilishini alohida qayd etish lozim. Hozirgi kunga qadar buxgalteriya hisobining 20 dan ortiq milliy standartlari qabul qilingan va amal qilib kelinmoqda. Moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni baholashda bu tartib albatta juda ko'p noaniqliklarga javob topish imkonini beradi. Jumladan, aktivlarni, daromad va xarajatlarni tan olish, mulkni haqiqiy qiymatini aniqlash va odilona baholash, aktivlarni likvidligi bo'yicha tarkiblash va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartiblaridagi umumiy yondashuvlarga amal etishning tartiblarini belgilab beradi. Lekin shu bilan birgalikda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda xorij amaliyotida qo'llaniladigan standartlarda (MHXS) umumiy talablarning sezilarli farqli jihatlarini ko'rish mumkin. Bu ham albatta moliyaviy holat tahlili va uning mazmuniga sezilarli ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-son qarori 2020-yil 24-fevralda joriy

etildi¹. Qarorda asosiy maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi sub'ektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir. 1-son Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standarti (BHXS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish"da "umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobot" tushunchasi kiritilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: Umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobot shunday foydalanuvchilarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan, qaysiki ular o'zlarining aniq axborot ehtiyojlariga to'liq javob beradigan hisobotlarni taqdim qilishni talab etish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday moliyaviy hisobot bir yilda bir martadan kam bo'lmagan holda tayyorlanadi hamda taqdim qilinadi va keng doiradagi axborot foydalanuvchilarning umumiy bo'lgan axborot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.²

1-son MHXSga muvofiq boshqa yalpi daromadlarga quyidagilar kiradi³:

- "Asosiy vositalar" nomli 16-son MHXS va "Nomoddiy aktivlar nomli 38-son MHXS muvofiq qayta baholash natijalari:
- "Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish" nomli 1-son MHXSga muvofiq pensiya to'lovlari bo'yicha aktuar foyda va zararlar;
- "Valyuta kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli 21-son MHXSga muvofiq xorijdagi faoliyat bo'yicha moliyaviy hisobot moddalarini qayta hisob-kitob qilish natijasida yuzaga kelgan foyda va zararlar;
- "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash" nomli 39-MHXSga muvofiq qayta sotish uchun mavjud bo'lgan moliyaviy aktivlarni qayta baholash natijasida yuzaga kelgan foyda va zararlar;
- Pul oqimlarini xedjirlash natijasida xedjirlash vositasi bo'yicha foyda va zararlar.

Moliyaviy hisobotlar – bu shunday foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan hisobotlarki, bunday foydalanuvchilar ularning axborotga bo'lgan maxsus talablariga moslashtirilgan hisobotlarni tadbirkorlik sub'ektidan talab qila olmaydi.⁴ Ushbu ta'rifni qisqacha qilib, moliyaviy hisobot – korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi yagona ommaviy axborot manbasi hisoblanadi.

Boshqa bir adabiyotlarda, moliyaviy hisobot – bu korxonaning iqtisodiy-moliyaviy holatini ochib beruvchi hujjat hisoblanib, uning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
2. Umumalashgan daromad to'g'risidagi hisobot;
3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;
4. Xususiy kapital harakati to'g'risidagi hisobot.

Moliyaviy hisobot deganda, umume'tirof etilgan qoidalar asosida tashkilotning moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari hamda pul mablag'lari harakatiga doir haqqoniy va sifatli axborotlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim tushuniladi. U ichki va asosan tashqi axborot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-son qarori 2020-yil 24-fevral


² S.N. Tashnazarov; Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1; darslik 113-bet

³ Ismanov, I. N., & Axmadaliev, B. (2021). Factors Influencing the Formation of International Budget Accounting Systems. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(09), 21-30.

⁴ www.mf.uz – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish va nazorat uchun axborotga bo'lgan umumiy ehtiyojini ta'minlashga qaratilgan.⁵

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga asosan tuzilgan hisobotlar korxonaga qarz beruvchilar, hozirgi paytdagi va potensial investorlar, shuningdek boshqa kreditorlarga hisobot beruvchi tashkilotga resurslarni taqdim etish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda foydali va zaruriy bo'ladigan moliyaviy axborotni taqdim etish uchun zarur (**1-chizmaga qarang**).



1-chizma. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari dolzarbligi

Moliyaviy hisobotlarning MHXS va BHMS asosida nomlanishining qiyosiy tahlili⁶

MHXS	BHMS
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot	Buxgalteriya balansi
Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
Kapitaldagi o'zgarishi to'g'risidagi hisobot	Xususi kapital to'g'risidagi hisobot
Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
Hisob siyosati va tushuntirishlar	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar

Moliyaviy hisobotlarning kamchiliklari:

- Hisobotlar ko'pincha turlicha talqin qilinadi, shuning uchun investorlar ko'pincha kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari haqida turli xil xulosalar chiqaradilar. Misol uchun, ba'zi investorlar aksiyalarni qaytarib sotib olishni xohlashlari mumkin, boshqalari esa uzoq muddatli aktivlarga investitsiya qilingan pulni ko'rishni afzal ko'rishlari mumkin. Kompaniyaning qarz darajasi bir investor uchun yaxshi bo'lishi mumkin, boshqasi esa kompaniya uchun qarz darajasidan xavotirda bo'lishi mumkin.
- Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda turli ko'rsatkichlarni aniqlash va kompaniya natijalarini raqobatdoshlari bilan solishtirish uchun bir nechta davrlarni solishtirish muhimdir.

⁵ S.N. Tashnazarov; Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1; darslik 116-bet

⁶ Davron Eshmurodovich Norbekov, Nargiza Shavkat qizi Toirova; "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot: milliy va xalqaro tajriba" maqola

Moliyaviy hisobotning afzalliklari.

- Moliyaviy hisobotlar korxonada qanday ishlashini ko'rsatadi. U korxonada qancha va qanday daromad keltirishi, biznes yuritish uchun qancha xarajat borligi, pul mablag'larini qanchalik samarali boshqarishi, uning aktivlari va majburiyatlari nimadan iboratligi haqida tushuncha beradi. Moliyaviy hisobotlar kompaniyaning o'zini qanchalik yaxshi yoki yomon boshqarishi haqidagi barcha tafsilotlarni beradi.

Hozirgi vaqtda aksionerlar va boshqa foydalanuvchilar uchun tayyorlanayotgan moliyaviy hisobotlarda mamlakatdan mamlakatga o'tib borayotgan, ayrim hollarda bir mamlakatdagina foydalaniladigan buxgalterlik prinsiplari va qoidalari ishlatilmoqda. Shunday qilib buxgalterlik hisobotlarida taqqoslanuvchanlik yetishmasligi mumkin. Bu holatning noqulayligi shundaki, moliyaviy hisobotdan foydalanadigan investitsion tahlilchilar va boshqa foydalanuvchilar hisobotni tahlil qilish jarayonida uning tarli standartlarga binoan tuzilganligi tufayli qo'shimcha xarajatlar qilishiga to'g'ri keladi. Ular hisobotlar interpretatsiyasida chalkashliklarga duch kelishlari ham mumkin. Ushbu jarayon bilan bog'liq holda kapitalning jahon bozorida samarali raqobat yomonlashishi, kompaniyalar esa kapitalni saqlash bo'yicha yuqori sarf-xarajatlarni o'z zimmasiga olishlariga to'g'ri keladi. Eng asosiysi, turli mamlakatlar uchun turlicha foyda miqdori ko'rsatilishi oqibatida buxgalterlik hisobotlariga ishonch yo'qoladi. Moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni tahlil etishdagi o'xshash jihatlarni buxgalteriya hisobining muhim tamoyili bo'lgan mazmunning shakldan ustunligi tamoyili bilan izohlash mumkin.

Xulosa va takliflar.

Maqolada biznes tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning o'rni bo'yicha quyidagi xulosaga keldik:

1. Biznes tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarning maqsadi va tuzilishi; moliyaviy hisobotlarning biznes qarorlardagi ahamiyati va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tamoyili; moliyaviy hisobotlarning monitoringi, avtomatlashtirish va xavfsizligini ta'minlash kabi dolzarb jabhalari har tomonlama o'rganildi.
2. "Akparshoh biznes" ma'suliyati cheklangan jamiyatning umumiy tavsifi, ya'ni ustavida belgilangan ma'lumotlar, tarkibiy tuzilishi va bo'linmalari yoritib berilgan. Shu bilan birga jamiyatda moliyaviy hisobotlar tuzish tartibi, hisobot tuzishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar, hisobotlar tasnifi va tavsifi berib o'tilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq tayyorlangan yalpi daromad to'g'risidagi hisobot shakli aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining moliyaviy natijalari ko'rsatkichlarini shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Ushbu hisobot daromadlar manbalariga qarab tasniflanadigan olingan daromad guruhlari va tegishli xarajatlar guruhlari o'rtasidagi nisbat prinsiplari asosida tuziladi. Ushbu hisobot turini xalqaro standartlar asosida tuzilar ekan, qonunchilikka bir qator o'zgartirishlar kiritish lozim. "Akparshoh biznes" MCHJda MHXSga va BHMSda buxgalteriya hisobini yaqinlashtirish bo'yicha hisob siyosati bo'yicha asosiy uslubiy tavsiyalar orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

- BHMS va MHXSda berilgan debitorlik va kreditlar uchun zaxiralarni yaratishning yagona metodologiyasini qo'llash; Foyda yoki zarar; Hisobot davrining sof foydasi (zarari); Yalpi daromadning har bir komponenti ulushli qatnashish hisobi usuli bo'yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi; Jami yalpi daromad Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta'sischilariga taaluqli foyda yoki zarar va jami yalpi daromad
- MHXS tamoyillariga muvofiq BHMSda zaxiralarni yaratish;

- zaxiralarni muntazam inventarizatsiya qilish, likvidsiz zaxiralarni hisobdan chiqarish⁷;
- MHXSni zaxiralash tamoyillari asosida sud jarayoni uchun zaxira yaratish;
- foydalanilmagan ta'tillar uchun zaxirani yaratish va tiklashga yagona metodologiyani qo'llash.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T. «O'zbekiston», **2019**. - 40 b.
2. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» (Yangi tahriri) 2016 yil 13 aprel
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi.-T.: “Adolat”, 2022 y.-400b
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi qarori
5. International Financial Reporting Standards. www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/2018.
6. A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, N. K. Rizaev, N. M. Imamova-moliyaviy hisobot standardari / dars-T.: "Moliya", 2021-310 B.
7. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari.– T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999.
8. Abdukarimov B.A. va boshq. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Fan,2005. - 287 b
9. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 584-b. <https://www.academia.edu>
10. S.N.Tashnazarov, K.B.Urazov, D.S. Tashnazarova. Boshqaruv buxgalteriya hisobi. Darslik. – Toshkent, 2022. -448 b.
11. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish.–T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.–336 b
12. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. - T.: Fan, 2005, 234 –b;
13. www.lex.uz
14. <http://www.audit-it.ru>
15. Baratovna E. Z. CONCEPT AND CONTENT OF OTHER COMPREHENSIVE INCOME, ACCOUNTING PRINCIPLES AND WAYS TO IMPROVE //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 84-89;
16. Baratovna E. Z. The First Application of International Financial Reporting Standards //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – T. 4. – С. 52-54;
17. Ветошкина Е. Ю., Эшпулатова З. Б. УЧЕТ ДОГОВОРОВ С ОБРАТНОЙ ПОКУПКОЙ //Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции. – 2022. – С. 13-19;
18. Baratovna E. Z. THE FIRST APPLICATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 109-111.

⁷ Исмаилов, И. (2021). UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Scienceweb academic papers collection

19. Eshpulatova Zaynab (2021) “ACCOUNTING FOR RECOGNITION OF ENTERPRISES INCOME (ACCOUNTS) IN ACCOUNTING WITH INTERNATIONAL STANDARDS AND “FINANCIAL REPORTING CONCEPTUAL FUNDAMENTALS”, *Euro-Asia Conferences*, 3(1), pp. 137–139.
20. ЭШПУЛАТОВА З. Б. RECOGNITION OF INCOME: ALLOCATE THE TRANSACTION PRICE TO THE PERFORMANCE OBLIGATIONS IN THE CONTRACT //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 3. – С. 16-22.
21. Eshpulatova, Z., 2021. ACCOUNTING OF REVENUE FROM CONTRACTS WITH CUSTOMERS ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *International Finance and Accounting*, 2021(2), p.25.
22. Eshpulatova Z. THE DIGITAL ECONOMY RELIES ON THE INTERNATIONAL STANDARDS OF THE FINANCIAL REPORT ON THE INCOME STATEMENT //DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR. – 2021. – С. 120.
23. Eshpulatova, Z., 2020. DETERMINATION OF INCOME AND PROFIT AS AN ELEMENT OF FINANCIAL STATEMENTS. *International Finance and Accounting*, 2020(1), p.20.